ISSN 2010-6246

# ILM SARCHASHMALARI

## ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

# Science Top Sources

## Scientific-theoretical, methodical journal

2025.5/1

www.ilmsarchashmalari.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**5/1-son (may 2025)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal**
2001-yildan nashr qilina boshlagan

**Urganch – 2025**

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, bazis so‘zlar atrofida qurilgan interaktiv platforma o‘zbek tilining sinonimik boyligini tizimli, tartibli va foydalanuvchiga qulay tarzda namoyish etishga qodir zamonaviy lingvistik vosita sifatida maydonga chiqdi. Bu loyiha o‘z mohiyatida klassik lug‘at tuzish yondashuvini inkor etmagan holda, uni funksionallashtiradi, ya’ni sinonimlar orasida semantik markaz – bazis birlikni aniqlash, ularni uslubiy jihatdan ajratish va foydalanuvchi ehtiyojiga mos tarzda taqdim etishni ta’minlaydi.

Maqolada yoritilganidek, platforma nafaqat tilshunoslik nazariyasiga tayangan, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida real amaliyotga aylangan modeldir. React.js, Tailwind CSS, Vite, Framer Motion kabi ilg‘or frontend texnologiyalarining tanlanishi, foydalanuvchi interfeysini soddalashtirish va interaktivlikni oshirishda muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, JSON asosidagi leksik ma’lumotlar tuzilmasi platformani kengaytiriluvchan, modullashtirilgan va semantik tahlilga moslashgan shaklga olib keldi. Shuningdek, platforma orqali sinonimlarning stilistik va zamonaviylik darajalariga ko‘ra guruhlani-shi, ularni interaktiv ko‘rinishda vizual tarzda taqdim etilishi bugungi o‘quvchi talabiga javob beruvchi vo-sita bo‘lib xizmat qiladi. Bu fikrlarni R.Po‘latov ham tasdiqlab o‘tadi: “Leksik birliklarning qo‘llanish chastotasi va uslubiy tavsifi ularni kompyuterda tasniflash imkonini beradi” (1).

Ta’limiy jarayon uchun bu platformaning ahamiyati beqiyosdir. An’anaviy o‘quv materiallaridan farqli ravishda, u o‘zbek tilidagi sinonimik qatlamlarni jonli, vizual va interaktiv shaklda o‘rgatadi. Foydalanuvchi so‘z tanlash orqali faqatgina ma’no emas, balki u bilan bog‘liq stilistik, uslubiy, zamonaviylik va qo‘llanish chastotasi bo‘yicha ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tilshunoslikni o‘rganishning passiv emas, balki faol tahliliy ko‘nikmalarga asoslangan shaklini yuzaga keltiradi. Shuningdek, loyiha bazis so‘zlar masalasini amaliy shaklda yoritish orqali tilshunoslikdagi muhim muammoga texnologik yechim taklif qilmoqda. Sinonimlarni klassifikatsiya qilish, bazislik mezonlarini raqamli metod bilan aniqlash, foydalanuvchi faoliyatidan kelib chiqib, tizimda yangi bog‘lanishlarni aniqlash – bularning barchasi zamonaviy lingvistik texnologiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat tilshunoslik va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi integratsiyaning real natijasidir.

Kelajak istiqbolida mazkur platformani yanada rivojlantirish, uni til korpuslariga ulash, sun’iy intellekt algoritmlari orqali sinonimik qatordagi bazis so‘zlarni avtomatik aniqlash tizimini yaratish kabi yo‘nalishlar asosida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishi mumkin. Shuningdek, bu platformaning boshqa tillar uchun moslashtirilgan versiyalari orqali xalqaro lingvistik texnologiyalar maydonida o‘zbek ilmiy maktabining o‘rni yanada mustahkamlanadi.

Demak, ushbu loyiha bu tilshunoslik nazariyasi, ta’limiy metodika va zamonaviy raqamli texnologiyalar kesishmasida yaratilgan universal va istiqbolli vositadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

[1]. Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi. Toshkent, “Fan”, 1990.

[2]. Mahmudov N. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zR FA nashriyoti, 2006.

[3]. Rakhmatullayev Sh. O‘zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994.

[4]. Zohidov M. Leksik ma’no va uning zamonaviy talqini. Samarqand universiteti nashriyoti, 2017.

[5]. Madatov K., Bekchanov S., Khajibaeva S. A Technique for Automatic Extraction of Basis Words: A Case Study on “Uzbek Primary School Corpus”. 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), p. 85–88. IEEE, 2024.

[6]. Hoshimov S. Matn lingvistikasi va kontekstual tahlil. Toshkent, “Akademnashr”, 2020.

[7]. Sinonim.uz – O‘zbek tilidagi sinonimik lug‘at platformasi.https://sinonim.uz

**Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich (Toshkent Kimyo-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi; rustam-mamatqulov@mail.ru)**

## NAVRO‘ZNING PAYDO BO‘LISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Annotatsiya.*** *Maqolada Navro‘zning mazmun-mohiyati, paydo bo‘lish tarixi tahlil etilgan. Xususan, Avestoda, dastlab, Navro‘z haqida ilk ma’lumotlar manbalar asosida ko‘rsatib berilgan. Mutafakkir allomalarning bir qator asarlarida ham Navro‘z to‘g‘risida asosli tarixiy ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Turli davr va hududlarning olimlari Navro‘zning madaniy va tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidlab kelganlar. Maqolada Navro‘zning rivojlanish bosqichlari, tarixiy, falsafiy ahamiyati ham ko‘rsatilgan.*

[1] Po‘latov R. Leksik birliklarni raqamli vositalar orqali o‘rganish metodikasi. Samarqand, “Ilm ziyo”, 2020, 93-bet.

***Kalit so'zlar**: Navro'z, "Avesto", Zardo'shtiylik, qadimiy manba, arxeolog, madaniyat, umumxalq bayrami, meros, UNESKO, BMT, bahor, ezgulik, mehr-oqibat, qadriyatlar, tarix, falsafa, Yangi O'zbekiston, mustaqillik, millat.*

## ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАВРУЗА И ЭТАПЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

***Аннотация.** В статье анализируются содержание и суть Навруза, а также история его происхождения. В частности, в Авесте впервые представлены основные сведения о Наврузе на основе источников. В ряде трудов великих мыслителей и ученых также приводятся обоснованные исторические данные о Наврузе. Учёные различных эпох и регионов подчеркивают культурное и историческое значение праздника. В статье также раскрыты этапы развития Навруза, его историческое и философское значение.*

***Ключевые слова:** Навруз, "Авеста", зороастризм, древний источник, археология, культура, всенародный праздник, наследие, ЮНЕСКО, ООН, весна, добро, любовь и дружба, ценности, история, философия, Новый Узбекистан, независимость, нация.*

## THE ORIGIN AND DEVELOPMENT STAGES OF NAVRUZ

***Annotation.** The article analyzes the content and essence of Nowruz, as well as the history of its origin. Specifically, the Avestan sources provide the first information about Nowruz. In the works of many prominent thinkers and scholars, substantiated historical data about Nowruz are also presented. Scholars from different periods and regions have emphasized the cultural and historical significance of Nowruz. The article also discusses the stages of the development of Nowruz, as well as its historical and philosophical importance.*

***Keywords:** Nowruz, 'Avesta", Zoroastrianism, ancient source, archaeology, culture, nationwide holiday, heritage, UNESCO, UN, spring, goodness, love and friendship, values, history, philosophy, New Uzbekistan, independence, nation.*

**Kirish (Introduction).** Kunlar isib butun tabiat uyg'ona boshlagach, ko'ngillarda ham qandaydir yangilanish, yasharish yuz beradi. Go'yoki dunyo qayta tug'ilgandek bo'ladi. Bu inson va tabiatning bir-biriga uyg'unlashuvini bildiradi. Ushbu holat qadim ajdodlarimiz tomonidan ham teran anglangan va ular bahorni shodiyonalik bilan qarshi olishgan. Kun va tun tenglashadigan vaqtni esa Navro'z deb atashgan. Navro'z bayramining tub ildizlarini izlab ko'radigan bo'lsak, termachilik va ovchilik qilib yurgan qadimgi davr kishilarining yangi xujalik yuritish vaqtigacha bo'lgan tartib-qoidalariga bog'liqligi aniq bo'ladi. Bu an'analar asta-sekin rivoj topib, takomillashib, yaxlit bir bayram ko'rinishiga kelgan. Bu jarayon qadimgi milliy dinlar vujudga kelishigacha ham amal qilgan. Shunday jarayonlar davom etayotgan vaqtlarda kishilar o'zaro urishmasliklari,bir-biridan xafa bo'lmasliklari, ochiq qalb bilan munosabatlarni yolga qoyishlari muhim hisoblangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Navro'z haqidagi ilk ma'lumotlar qadimgi diniy manbalarda ham mavjud. Masalan, "Avesto" diniy muqaddas kitobda mavjud [1]. Unda aytilishicha, Navro'z ko'klam, bahorning qaytishi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishini anglatadi. Zardo'shtiylikka e'tiqod qiluvchilarning hayotida yangi kun bayrami – Navro'zi olam alohida ahamiyat kasb etgan. Buni biz Kofirqal'a yodgorligidan zardo'shtiylarning mo'l hosil va suvning ilohiy ramzi hisoblanmish – "Nana" ifodasi yog'och pannoning borligi buni yaqqol isbotidir [2]. Yog'och panno So'g'd hukmdorlarining shahardan chekkadagi muhtasham qasrlarida joylashgan. U joylashgan saroyda diniy hamda dunyoviy urf-odatlarni, xususan, Navro'z va Mehrjon bayramlari nishonlangan.

Navro'z haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" [3], Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" [4], Firdavsiyning "Shohnoma", Umar Xayyomning "Navro'znoma", Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" [5] asarlarida ham ko'p uchraydi. Keltirilgan manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Navro'zning paydo bo'lishi Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun bilan kunning teng kechishi singari tabiat qonunlarining ifodasi ekani ma'lum bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, mazkur bayram o'zining astronomik ilmiy asoslariga ega hodisa ekanligini bildiradi. Navro'z bilan bog'liq ma'lumotlar Islom tarixiga oid manbalarda ham keng qo'llanilgan. Mutafakkir olimlarimiz fiqhiy kitoblarda xalqimizga xos turlicha bayramlarni, xususan, Navro'z bayramini ham nishonlash haqida to'xtab o'tganlar. Masalan, manbalarda Navro'zi Jamshidiy, Navro'zi Majusiy va Navro'zi Sultoniy kabi uch xilda bo'lishi keltiriladi. Navro'zi Sultoniyni o'tkazmoqlik maqbuldir va hech dinga ziyoni yo'qdir, deyiladi manbada. Navro'zi Jamshidiy afsonaviy shoh Jamshid nomiga borib taqalsa, Navro'zi Sultoniy mashhur Saljuqiy hukmdor Jaloliddin Malikshoh nomi bilan bog'liq. Shu bilan birga, Sosoniy hukmdor Piruz davrida ham yangilanishlar, o'zgarishlar yuzaga kelib, bayram Navro'zi Piruzi sifatida nom olgan. Ammo asl mohiyat o'zgarmagan va bu kun yangi yilning boshlanishi sanasi sifatida nishonlanib kelgan.

Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra, "Ahamoniylar hukmronligi vaqtida Navro'z davlat siyosatida muhim sanalib, katta tantana bilan nishonlangan. Persepol saroyidagi yodgorliklarda bu bayramni nishonlash udumi podshohga turli xalqlarning elchilari tomonidan sovg'alar keltirilishi bilan ramziy ma'noga ega bo'lgan" [6]. Turli davrlarning olimlari Navro'zning madaniy va tarixiy ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Masalan, fransuz sharqshunosi Jan Pol Ruy Navro'zning katta bir mintaqa xalqlari tomonidan shunchalar katta mehr bilan nishonlanishi – bu bayram mohiyatan ham tarixiy va ham falsafiy ahamiyati beqiyosligini ta'kidlaydi. Britaniyalik tarixchi olim R.N.Fre esa Navro'zni forsiy madaniyatning asosiy bayramlaridan biri ekanligini, uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o'rin egallaganini ta'kidlaydi.

"Har tuning qadr o'lubon, har kuning bo'lsun Navro'z", deb yozadi g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy [7]. Anglash mumkinki, o'zbek davlatchiligi eng yuqori chuqqiga yetgan davrlarida ham Navro'z insonlarga cheksiz quvonch ulashuvchi, mehr-oqibat ulashuvchi bayram sifatida nishonlanib kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Navro'zni vujudga kelishini tarixiylik, mantiqiylik, taqqoslash, qiyosiy va umumlashturuvchi uslublar asosida tahlil qilganda, ajdodlarimiz tomonidan azaldan umumxalq bayramining paydo bo'lishini mavsumiy ekinchilik kabi yerga ishlov berish ishlarining boshlanishi bilan uyg'un holda sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Yegirma birinchi martdan yigirma ikkinchi martga o'tar kechasi, Navro'z bayramining nishonlanishi turli bahorgi ko'klam taomlarini tayorlash ishlari bilan boshlanadi. Mazkur tadbirlar bir kecha-kunduz davomida, ko'pchilik birgalikda, chin dildan tansiq ko'klam pishiriqlari – sumalak, halim kabi taomlar tayorlangan. Bu taomlar bir kecha-yu bir kunduz o'tgach, tortiq qilingan. Navro'z dasturxonni turli taomlar bilan tuldiradigan, qut-baraka olib keladigan umumxalq bayrami sifatida azaldan nishonlanib keladi. Bugungi kunda Navro'z bayrami – Markaziy Osiyo, asosan, Sharq xalqlari kabi mintaqalarida hamda Rossiya xalqlarining ayrim joylarida bayram qilinadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O'zbekiston xalqi Navro'zni umumxalq bayrami sifatida istiqlolga erishish ostonasida, rasman keng miqyosda nishonlash yulga qo'yildi. Shu yildan e'tiboran, yigirma birinchi mart kuni Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlash belgilab olindi. Mazkur bayram ikki ming to'qqizinchi yil 30-sentabrdan UNESKO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy meroslar ro'yxatiga kiritildi. Ikki ming o'ninchi yil, o'n to'qqizinchi fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi. Bu esa Navro'z bayrami insonlar, turli xalqlarning o'zaro ijtimoiy-ma'naviy, madaniy munosabatlarni, birdamlikni yanada kuchaytirishni, milliy, umuminsoniy manfaatlarni mushtaraklashuvuni, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni yanada oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 21-fevralida qabul qilingan "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida [8], Navro'zni – yangi yil boshlanishining Sharqona qutlug' kuni sifatida insonlarga bahoriy ruh bag'ishlaydigan, yaxshilik, mehr-oqibat, yaratuvchilik, mehnatsevarlik va tinchlik ramzi sifatida, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy, madaniy sohasida katta ta'sir ko'rsatib kelayotgani hamda ushbu bayramni xalq sayili tarzida yuksak darajada keng nishonlash belgilab olindi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, mana 35 yildirki Navro'z umumxalq bayrami sifatida muntazam nishonlanib kelmoqda. 2025-yildan boshlab, jamiyatimizda "Qadriyatlaring boqiy bo'lsin, Navro'z!"–asosiy g'oya negizida bo'lishi belgilangan bayram sayillari milliy urf-odatlar, qadriyat va an'analarimiz hamda yangilanishlarga monand holda, yaqinda qabul qilingan Konsepsiyaning mazmun-mohiyatiga mos holda, yuqori saviyada tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi. Bayram tadbirlari olamning yangilanishi, tabiatning uyg'onishi, tabiat va insonning mohiyatan uyg'unlashuvi, borliqqa, Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarga e'tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi osoyishta, tinch hayotimizni avaylab-asrash, shukronalik hissini tarbiyalashga undaydigan ta'sirchan tarzda o'tkazilishi ham g'oyaviy va ham amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Navro'z bayrami munosabati bilan no'roniylarning holidan xabar olish, mehribonlik uylariga tashrif buyrish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga davlatimizning insonparvarlik ko'mak ko'rsatishi hamda turli ijtimoiy-xayriya tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. Bularning barchasi zamirida Navro'zning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida insonning manfaati va tabiatining o'ziga xos ifodasi ekanligini anglatadi.

Navro'zning psixologik, falsafiy mohiyatida ezgulik, adolat, mehr-oqibat, birdamlik, do'stlik va hamkorlik, tabiyatni musoffoligini saqlash, qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi insonparvarlik g'oyalari yotadi. Bu g'oyalar esa Yangi O'zbekistondagi tarixiy o'zgarishlarning mazmun-mohiyatiga monanddir. Navro'z bayrami, yurtimizdagi barcha elatlar va millatlarning ma'naviy-ruhiy manfaatlarini o'zida aks ettiruvchi umumxalq bayrami sifatida, bundan keyin ham yuksak saviyada nishonlanib boriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). “Avesta”. O‘zbekcha tarjima (Asqar Maukam tarjimasi). T., 2001.

(2). A.Asqarov. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Toshkent, “Fan”, 2023.

(3). Beruniy A. Osor-ul boqiya (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). T., “Fan”, 1968.

(4). Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devoni lug‘otit-turk). 3 jildlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov, T., “Fan”, 1960.

(5). Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent, “Anorbooks”, 2022.

(6). H.Hamidiy “Avesto”dan “Shohnoma”gacha. T., “Sharq”, 2007.

(7). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, T., «Fan», 1991.

(8). https://lex.uz/uz/docs/7395885.

**Maxsudova Xolisxon Ummatovna (Andijon davlat Texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD; xolisxon0408@gmail.com)**

## MASHINASOZLIK TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK TUZILISHI VA KONTEKSTUAL FOYDALANISH

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola lingvistik tuzilish va kontekstual foydalanish mashinasozlik ichidagi atamalarning adaptiv xususiyatini qanday shakllantirishini o‘rganishga qaratilgan. Ma’lumki, terminologiyaga xos bo‘lgan o‘ziga xoslik va murakkablik, ko‘pincha, texnologiyadagi yutuqlarni va sanoat amaliyotidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi, bu esa doimiy moslashish va takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu atamalarning nozik tomonlarini va ularning kelib chiqishi, ishlatilishi hamda rivojlanayotgan texnologiyalarga javoban qanday rivojlanishini o‘rganib chiqib, ushbu tadqiqot tilning aloqa vositasi va uning amaliy qo‘llanilishi bilan o‘zgarib turadigan tirik mavjudot sifatidagi rolini ta’kidlaydi. Tadqiqotimiz nafaqat ushbu sohadagi mutaxassislar duch keladigan muammolarni, balki texnologik landshaftlarning jadal rivojlanib borishida aloqa va tushunish uchun kengroq ta’sirlarni ham ochib beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mashinasozlik terminalogiyasi, moslashuvchanlik, sintaksis, semantika, leksika, SCATE loyiha.*

## ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА И КОНТЕКСТУАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ МАШИНОСТРОЕНИЯ

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена изучению того, как лингвистическая структура и контекстуальное использование формируют адаптивный характер терминов в машиностроении. Известно, что специфичность и сложность, присущие терминологии, часто отражают достижения в технологии и изменения в промышленной практике, что требует постоянной адаптации и совершенствования. Исследуя нюансы этих терминов, их происхождение, применение и то, как они эволюционируют в ответ на развивающиеся технологии, данное исследование подчеркивает роль языка как средства коммуникации и как живого организма, меняющегося в зависимости от его практического применения. Наше исследование раскрывает не только проблемы, с которыми сталкиваются специалисты в этой области, но и более широкие последствия для коммуникации и понимания в условиях стремительного развития технологических ландшафтов.*

***Ключевые слова:*** *машинная терминология, гибкость, синтаксис, семантика, лексика, SCATE проект.*

## LINGUISTIC STRUCTURE AND CONTEXTUAL USAGE OF MECHANICAL ENGINEERING TERMINOLOGY

***Annotation.*** *This article focuses on how linguistic structure and contextual usage shape the adaptive feature of terms within mechanical engineering. It is known that the originality and complexity inherent in terminology often reflect technological achievements and changes in industrial practice, which requires constant adaptation and improvement. By examining the subtleties of these terms and how they originate, are used, and evolve in response to evolving technologies, this study emphasizes the role of language as a means of communication and a living being that changes with its practical application. Our research reveals not only the problems faced by specialists in this field, but also broader influences for communication and understanding in the rapid development of technological landscapes.*

***Keywords.*** *Machine-building terminalogy, flexible, syntax, semantics, lexicon, SCATE project.*

**Kirish.** Muhandislik va texnologiya sohasida mashinasozlik terminologiyasi ushbu sohada samarali aloqa va innovatsiyalarni osonlashtiradigan asosiy element bo‘lib xizmat qiladi. Ixtisoslashgan tildan aniq foydalanish muhandislarga murakkab tushunchalarni qisqacha yetkazishga imkon beradi va shu bilan turli

## MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS


| | | |
|---|---|---|
| **FIZIKA-MATEMATIKA** | | |
| **Alishev Abdumannon, Baxtiyorova Kamola** | Ba'zi integro-differensial tenglamalar sistemasining asimptotik integrallash | **3** |
| **Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich** | Sezgirlikni tahlil qilishning bir usuli haqida | **8** |
| **Axmedov Nasriddin Baxodirovich** | Elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning xususiy chastotalari | **11** |
| **Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich, Ergasheva Nilufar Mansurovna** | Tovush tezligidan katta bo'lmagan tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manbadan hosil bo'ladigan to'lqin xususiyatlari | **16** |
| **Usarov Begzod O'ralovich** | "To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari | **24** |
| **Nushtayeva Ozoda Xasilovna** | O'z-o'zini tozalash funksiyasiga ega bo'lgan quyosh batareyasi yuzasining ifloslanish darajasini masofadan monitoring qilish uchun qurilma | **32** |
| **Vaisova Moxira Davlatboyevna, Salayeva Rohila Rustamovna** | $\mathbb{C}^2$ fazoda $\alpha$-subgarmonik funksiyaning integral xossasi | **38** |
| **FALSAFA** | | |
| **Azimov Ulug'bek Abduxalilovich** | Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli | **44** |
| **Shonazarov Jamshid Shuhratovich** | Davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muaommolari va yechimlar | **47** |
| **Joldasbayev Oralbay Yernazarovich** | Berdaq ijtimoiy-falsafasiy qarashlarida tenglik va adolat kategoriyalarining tahlili | **50** |
| **Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li** | Yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy tarbiyasi | **53** |
| **Rustamov Ramz Rizoqulovich** | Jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo'llari | **58** |
| **Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li** | Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ta'sir etuvchi omillar | **61** |
| **Ochilov Sarvar Safayevich** | Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit | **64** |
| **Utegenova Jamila Djolmurzayevna** | Bioetika sohasini shakllantirish mexanizmlari | **68** |
| **TILSHUNOSLIK** | | |
| **Xidirova Maxfuza Amirqulovna** | Yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik va tematik tahlili | **71** |
| **Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich** | Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspekti | **76** |
| **Irisovna Sayida Abdiyeva** | Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni | **78** |
| **ADABIYOTSHUNOSLIK** | | |
| **Allashev Akbarbek Anvar o'g'li** | Adabiyotda konflikt va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik | **81** |
| **Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi** | "Boburnoma" sujeti va tavsiflash prinsipi | **84** |
| **Qarshibayeva Uljan Davirovna** | Balzak asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muhit ta'siri | **87** |
| **Rakhimova Dilfuza Masharip qizi** | Uilyam Golding asarlarini o'rganishning tamoyillari | **91** |
| **Kenjayeva Umida, Oydinova Parizod** | Adekvat topishmoqlar | **94** |
| **JURNALISTIKA** | | |
| **Egamnazarov Bobur** | Jurnalistikada ixtisoslashuv va qurilish tematikasini yoritishdagi o'ziga xosliklar | **99** |
| **Kallibekova Gulnara Palbekovna** | Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati | **101** |

| PEDAGOGIKA | | |
|---|---|---|
| **Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich** | Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning modeli | **106** |
| **Toshpo‘latova Inobat Ulug‘bek qizi** | Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari | **109** |
| **Abduraxmonava Muxayoxon Abduraximovna** | Talabalarni o‘qitishda STEAM ta’limining qollanilishi | **111** |
| **Axmedov Akmal Yusufovich** | Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak pedagog ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir | **115** |
| **Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna** | Loyihaga asoslangan ta’lim metodining dars jarayonida qo‘llanilishi va bunda pedagogning roli | **118** |
| **Abdullayeva Saida Malikovna** | CBI yondashuvining chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati | **120** |
| **Xuramov Ilxom Panjiyevich** | Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish | **125** |
| **Mustafayeva Nilufar Ulashovna** | Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari | **129** |
| **Davletova Ullijon Sapavoy qizi** | Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari | **132** |
| **Urunova Shaxlo Rafikovna** | Terminologik leksikani o‘qitishda zamonaviy interaktiv yondashuvlar | **135** |
| **Nizamova Umida Sandjarovna** | Nofilologik yonalishi talabalariga chet til o‘qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati | **137** |
| **Juginisova Juldiz Imnixashimovna, Asanova Uldawlet Sagindikovna, Saxanova Liza Jamixatovna** | Masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarish | **140** |
| **Shadiyeva Nigora Sharipovna** | Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili | **143** |
| **Qutlimuratova Barno Xursandbekovna** | Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘zbek talabalari: korpus yordamida xatoliklar tahlili | **147** |
| **Matniyazov Xasan Kamolovich** | Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatish va nazorat qilish | **150** |
| **Каландаров Сардар Ибрагимович** | Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе | **153** |
| **Айбергенова Айнура Рустемовна** | Развитие навыков письменной речи у студентов-медиков при обучении РКИ | **156** |
| **Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович** | Типы медицинских текстов и их применение в обучении английскому языку будущих врачей | **159** |
| **Hodiyeva Yulduz Yunusovna** | Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish | **162** |
| **Irbutaeva Nigora Dilshodovna, Makhmudova Asal Malikovna, Normamatova Maftuna Fozilovna** | Studying Medical Terms by Non-Russian-Speaking Students in Russian Language Classes at Medical Universities | **165** |
| **Xakimova Munira Xabibullayevna** | Main Factors Which are Influenced on Reading Skills | **169** |
| **Arslonbekovna Ra’no Arslonbekova** | Transforming traditional teaching through ESP | **171** |
| **ILMIY AXBOROT** | | |
| **Hamrayeva Saida Ismailovna** | “Ma’lumotlar intellektual tahlili” fani uchun CRISP-DM metodologiyasi | **175** |
| **Madatov Xabibulla Axmedovich** | Bazis so‘zlar bilan ishlovchi elektron tizim: lingvistik va texnologik qarashlar | **178** |
| **Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich** | Navro‘zning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari | **181** |
| **Maxsudova Xolisxon Ummatovna** | Mashinasozlik terminologiyasining lingvistik tuzilishi va kontekstual foydalanish | **184** |
| **Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi** | Ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonining o‘ziga xos xususiyatlari | **186** |

| | | |
|---|---|---|
| **Yuldashev Doniyor Taxirovich, Pulatova Muhayyo Azimboyevna** | Ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning tarjima metodlari | **189** |
| **Jurayeva Iroda Axmedovna** | J.K.Roulingning “Garri Potter” asaridagi antroponimlarning milliy-lisoniy xususiyatlari | **193** |
| **Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich** | Qoraqalpoq tilida antonimik munosabatdagi fe‘l so‘z turkumining guruhlari | **196** |
| **Qodirova Xurshida Marselovna** | Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati natijalari va dolzarb vazifalar | **199** |
| **Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi** | “Smile/tabassum” tushunchalarining ingliz va o‘zbek tillarida jins va yosh omillari asosida ifodalanishining lingvistik tahlili | **202** |
| **Karimova Munisa Yaxyoyevna, Imamov Navruz Pattaqulovich** | O‘zbek va ingliz tillarida fe’lning chegaralanmaganlik xususiyati va harakat tarzi qiyosiy tahlili | **205** |
| **Dlanova Palzira Gulimbetovna** | Talabalarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari | **208** |
| **Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich, Shomurotova Nigora Otabayevna** | She’riy tarjimada milliy koloritning aks etishi | **211** |
| **Каримова Ферузахон Иноятовна** | Словообразование и анализ сложных слов английского и узбекского языков | **216** |
| **Солиев Ибодуллохон Исматуллаевич** | Механизмы внедрения институциональной автономии в ВУЗах узбекистана: опыт, проблемы и перспективы | **219** |
| **Анварова Мафтунахон Дилмурод кизи** | Эволюция концепта семьи в разных культурах | **221** |
| **Саттарова Елена Анатольевна** | Лингвистическое определение эвфемизмов в медицинской профессиональной речи | **224** |
| **Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar kizi** | Linguocultural Study of Proverbs in English and Uzbek Languages | **226** |
| **Mirzayeva Gulnozakhon Ilkhamovna** | A Comparative Analysis of Phraseological Units Depicting the Human Psyche in English and Uzbek | **229** |
| **Polvanova Mahzuna Farxadovna** | Analyzing the Grammatical Structure of Phraseologizms that Contain the Word “Money” in Both Uzbek and English | **231** |
| **Rahmonova Gulhayo Khalilovna** | The Peculiarities of Used Stylistic Devices in “The Portrait of the Artist as a Young Man” by James Joyce | **234** |
| **Kodirova Dilrabo Shamsidinovna** | Metonymic Transition of Words into Mining Terminology | **237** |
| **Polvannazirova Sevara, Atajonova Zukhra** | Navigating Linguistic and Cultural Complexities in Literary Translation: a Case Study of Utkir Hoshimov’s “Tarnov” | **241** |